

TEXNOLOGIK TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNIKA-PEDAGOGIK MAHORATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA NAMOYON BO`LISHI



Abstract:

Ushbu maqolada texnologik ta'lilda pedagogik texnikaning o`rni va ahamiyati, shu bilan birga pedagogik texnika texnologik ta'lilda pedagogik mahoratning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo`lishi haqida so`z boradi.

Key words:

texnologik ta'lim, pedagogik texnika, pedagogik mahorat, ta'lim jarayonida mahorat, texnologiyada mahorat.

Author of the article:

**Umarjonova Nodira
Abduxamid qizi**

Workspace (Education subject)

**Stajor o`qituvchi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti “Texnologik ta'lum
metodikasi” kafedrasи**

Ta'lum beruvchining ta'lum-tarbiya jarayonida o`zini namoyon qilishi hamda buni mahorat darajasida rivojlantira bilishi ta'lum jarayonini optimallashtirishi ta'lum muassasalarida ta'lumiylar va tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy talablar asosida muvofiqlashtirishga yo`l ochadi.

Yangi O`zbekistonda ro`y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, innovatsion, sanoat, ma`naviy va ma`rifiy o`zgarishlar ta'lum jarayonida zamonaviylashuvni keltirib chiqardi. Bunda ta'lum jarayonida innovatsion metodlar va texnologiyalardan foydalanish ta'lum beruvchidan pedagogik mahorat va pedagogik texnikani talab etadi. Bilamizki, pedagogik texnika pedagogik mahoratning tarkibiy qismi bo`libgina qolmay, undan alohida tarzda ham o`zini namoyon qiladi. Bunda “pedagogik mahorat nima-yu pedagogik texnika nima?” degan savollarga javob berishni o`rinli deb bildik.

Pedagogik mahorat-o`qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayriyohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo`lib, o`qituvchilarning ta'lum-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir. U o`z fanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo`lgan, o`quvchilarni o`qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo`llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o`qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo`ladi.

Pedagogik texnika-o`qituvchining nafaqat ta'lum-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo`lgan pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari-bu avvalo o`qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko`nikmalari hisoblanadi, ya`ni uning savodli va ifodali so`zlay olishi, o`z fikr-mulohazasini va bilimini tushunarli tilda ta`sirchan bayon qilishi, his-tuyg`usini jilovlay olishi, o`zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimic qobiliyatlarga ega bo`lishi, aniq imo-ishora, ma`noli qarash, rag`batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so`zning cheksiz qudari orqali o`quvchilar ongiga va tafakkuriga ta`sir o`tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo`lishi kabilardir.

«Development of science» international conference

Demak, pedagogik mahoratni ta'lif beruvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlari majmuasi deb olsak, pedagogik texnika pedagogik mahoratning tarkibiy qismi bo`lish bilan birga, pedagogik mahoratning takomillashgan ko`rinishi deb javob berishimiz mumkin.

Endi texnologik ta'lifda pedagogik mahorat va pedagogik texnika qay tarzda namoyon bo`lishi hamda uning texnologik ta'lif rivojlanishida, umuman texnologiya ta'lifi jarayonlarida ulushi qandayligiga batafsil to`xtalib o`tish mumkin.

Ma'lumki, texnologik ta'lif o`zida soddadan murakkabga qarab boruvchi, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan ishlar va jarayonlarni qamrab olgan. Xususan, uning ta'lif jarayonlarini tashkil etish ham ta'lif beruvchi oldiga qator vazifalarni qo`yadi.

Texnologik ta'lif fanning mohiyati va mazmunidan kelib chiqqan holda ta'lif berish shakllarining barchasini o`z ichiga oladi desak mubolag'a bo`lmaydi. Fanning mazmuni yuzaisdan amaliy mashg'ulotlar ulushi ko`pligini inobatga olsak, unda ta'lif beruvchi doimiy faol bo`lishi, ta'lif oluvchi bilan muntazam muloqotda bo`lishi talab etiladi. Bunda esa ta'lif beruvchidan nafaqat bilim, ko`nikma va malakalar majmuasi, ya`ni pedagogik texnika hamda pedagogik mahorat talab etiladi. Bunda ta'lif beruvchi nafaqat fan yoki soha yuzasidan bilimni egallabgina qolmay, pedagogik texnikaning qismlari bo`lgan, mimika, pantomimika, jest, ovoz tebranishi, uning jozibadorligi, nutq texnikasi kabi kompetensiyalarini ham qo`llay olishi zarur. Negaki, ta'lif sifati samaradorligida ta'lif beruvchining pedagogik texnikasi va pedagogik mahorati ham o`z ulushiga ega.

Ta'lif-tarbiyani modernizatsiya qilish Yangi O`zbekiston taraqqiyoti strategiyasi maqsadlarini ro`yobga chiqarishning eng samarali prinsipi bo`lib hisoblanadi. Bu esa pedagogika nazariyasida qiyosiy yo`nalishni kuchaytirishni, turli zamon va makonlarda yaratilgan tarbiya konsepsiylarini vertikal va gorizontal pedagogik integratsiya nuqtai nazaridan tahlil qilishni, xatolarni chetlab o`tib, tarix sinovidan o`tgan, insonparavarona mohiyatga ega bo`lgan tarbiyaviy konsepsiya yutuqlaridan, texnologiyasidan samarali foydalanishni taqazo qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Xoliquv A. Pedagogik mahorat.-T.: "TAFAKKUR-BO`STONI" nashriyoti, 2011.-15-b, 160-b.
 2. Ibraimov X., Quranov M. Umumi pedagogika.-T.: "SAHHOF" nashriyoti, 2023.-384-385-b.
- Umarjonova N. (2023). IMPROVING THE MEDIA SKILLS OF TEACHERS ON THE BASIS OF USING ELECTRONIC EDUCATIONAL PLATFORMS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education, 1(22), 71-72. Retrieved from <https://aidlx.org/index.php/us/article/view/376>.